

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04. RAQAMLI ILMY  
KENGASH

---

NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAQSUDOVA GULNOZ OLIMOVNA

BO'LAJAK XORIJIY TIL O'QITUVCHISINING KASBIY NUTQ FAOLIYATINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasи**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

**Maqsudova Gulnoz Olimovna**

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish metodikasini	takomillashtirish	3
.....		

**Максудова Гулноз Олимовна**

Совершенствование методики развития профессиональной речевой деятельности будущего преподавателя иностранного языка.....	33
--	----

**Maqsudova Gulnoz Olimovna**

Improving the methodology for developing the professional speech activity of a future foreign language teacher.....	69
---	----

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ	
List of published works	75
.....	

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04. RAQAMLI ILMY  
KENGASH

---

NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAQSUDOVA GULNOZ OLIMOVNA

BO'LAJAK XORIJIY TIL O'QITUVCHISINING KASBIY NUTQ FAOLIYATINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2. DSc/Ped1154 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nizomi nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lif portalida [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Rasmiy opponentlar:**

**Isakulova Nilufar Janikulovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Misirov Sohibjon Abdupattayevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc),  
professor

**Kadirova Munira Rasulovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc),  
professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomi nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_" soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86. E-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Nizomi nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27 uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86. E-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertasiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_" \_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2026-yil "\_\_\_" \_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.A.Atadjanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**N.M.Axmedova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

**Sh.A.Atadjanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar  
raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc),  
dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon oliy ta'limga muassasalarining ilmiy-amaliy tadqiqot yo'nalishlarida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga qaratilgan talablarning ortib borishi, kreativ modulli texnologiyalarni ta'limga jarayoniga singdirilishi bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash tizimiga yangicha yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Globallashuv jarayonining jadallahuvi va xalqaro ta'limga makonida integratsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida YUNESKO, Yevropa Kengashi hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development – OECD) kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarda o'qituvchining nutqiy-kommunikativ faoliyati, kasbiy muloqotni samarali tashkil etish hamda ta'limga jarayonida interaktiv va funksional nutqdan foydalanish muhim kasbiy kompetensiya sifatida e'tirof etilgan.<sup>1</sup> Shu bois, bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish masalasi ta'limga sifatini oshirish, xalqaro talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida, xususan, Buyuk Britaniyada amalga oshirilayotgan "English Language Teaching Reforms" hamda AQShda qabul qilingan "National Standards for Foreign Language Education" kabi dasturlarida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ustuvor yo'nalishlar sifatida lingvistik bilimlarni kengaytirish, kasbiy pedagogik muloqotni shakllantirish, nutqiy-tafakkur jarayoni bilan nutq faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni rivojlantirish, nutqni hosil qiluvchi kognitiv asos konseptual tuzilmalarni shakllantirish hamda kasbiy nutqni tizimli ravishda takomillashtirish belgilangan. Olib borilayotgan tadqiqotlar kasbiy pedagogik tayyorgarlik jarayonida turli zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'lllashning nazariy-metodologik asoslarini chuqur o'rganishga mo'ljallanib, bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy-kommunikativ kompetensiysi, nutqiy faoliyat turlari integratsiyasi hamda refleksiv-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda ustuvor ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutq faoliyatini zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik baholash mezonlari va parametrlarini aniqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'limga sohasini

<sup>1</sup>UNESCO "ICT Competency Framework for Teachers" (2018), dasturi: <https://unesdoc.unesco.org/in/rest/> , Yevropa Ittifoqining "Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment" (CEFR, 2001; 2018 Companion Volume) dasturi: <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages>, OECD "Future of Education and Skills: Education 2030" dasturi: <https://www.oecd.org/education/2030-project>

modernizatsiya qilish, chet tillarni o'qitishni xalqaro standartlar (CEFR) asosida tashkil etish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ushbu sohada samarali pedagogik shart-sharoitlar, metodik ta'minot va modellarni ishlab chiqish, didaktik mexanizmlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar va funksional yondashuv asosida nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizimlarni joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan xorijiy tillarni o'qitishning yangi tizimini tashkil qilish"<sup>2</sup> ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, ta'lim amaliyoti uchun istiqboldagi kafolatlangan natijalarga erishishga zamin hozirlaydi.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabr PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutqiy faoliyatini takomillashtirish strategiyalarini loyixalashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy tadqiqotlar jahonning yetakchi markazlari xususan: University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Cardif University (Uels), Newcastle University, Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Nazarbayev universiteti (Qozig'iston Respublikasi)da olib borilmoqda<sup>3</sup>.

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutqiy faoliyatini rivojlantirish strategiyalarini loyixalashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: jumladan raqamli ta'lim sharoitida ta'lim tizimiga fanlarning mos

<sup>2</sup> Mazkur qism quyidagi manbalar asosida yoritilgan: Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 6 may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi.

<sup>3</sup> Mazkur qism quyidagi manbalar asosida yoritilgan: University of Cambridge - Faculty of Education, Cardiff University. School of English - Communication and Philosophy, Newcastle University. School of Education, Communication and Language Sciences, Moskva davlat pedagogika universiteti, Nazarbayev universiteti-School of Languages, Linguistics, and Literatures.

mazmunlarini strategik loyihalash asosida milliy o'quv rejasi ishlab chiqilgan, nutq faoliyati shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida takomillashtirilgan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik ta'limini mazmuni raqamlashtirishga moslashtirish asosida rivojlantirish, raqamlashtirilgan ta'lim sharoitidagi yangi mazmunga o'tish rejalar takomillashtirilgan, kasbiy-pedagogik tayyorgarligini namoyon etadigan kontekslidagi yondashuvdan keng foydalanish asosida kompetentli pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari takomillashtirilgan. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda metodik tizimlarni yaratish, ularning kasbiy va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'qituvchilarni tayyorlashda o'ziga xos metodik yondashuvlar, shu jumladan, til o'qitish metodikasini rivojlantirish, ta'limda yangi yondashuvlarni qo'llash va o'qituvchilarning yozma va og'zaki nutq faoliyatlarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu sohadagi tadqiqotlar, masalan, o'qituvchilarga yozma va og'zaki nutqni samarali o'rgatish metodikasini ishlab chiqish, turli ta'lim tizimlarida qo'llaniladigan interaktiv metodlar va mashqlarni o'rgatish, shuningdek, pedagogik kompetensiyalarini yanada takomillashtirishga qaratilmoqda.

Bundan tashqari, o'qituvchilarni tayyorlashda ko'p tilli va multimedia dasturlarining qo'llanilishi, lingvodidaktik tasniflar va mashqlar tizimlarini ishlab chiqish, o'qituvchilarning lisoniy, kasbiy va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari chuqur o'rganilmoqda. O'qituvchilarning malakalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar va usullar, shu bilan birga, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish usullari ham tadqiqotlar obyekti hisoblanadi.

Global miqyosda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ularning kasbiy, shaxsiy, pedagogik, ijodiy va metodik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda pedagogik metodlarni yangi yondashuvlar asosida rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunday bo'lsada, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi mavjud muammolar, ayniqsa, ularning ksbiy nutq faoliyatini rivojlantirish va ilmiy-amaliy metodlar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish M.T.Irisqulov, J.J.Jalolov, A.A.Abduaizizov, Sh.A.Attadajonova, L.T.Axmedova, N.T.Kuchimova, M.X.Karaxodjayeva, F.Sh.Alimov, U.U.Jumanazarov, G.T.Rashidova, B.G.Kulmatov, G.A.Asilova, G.X.Mahkamova, B.B.Mamarajabov, R.M.Sadikov<sup>4</sup>larning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

<sup>4</sup> Mazkur qism quyidagi manbalar asosida yoritilgan: Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –T.: Yangi asr avlodi, 2009. 120 b, 14. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – 432 b, Abduaizizov A.A. tilshunoslikka kirish.-T.: Sharq, 2010.-2-170 b, 65. Atadjanova Sh.A. Chet til ta'limida talabalar kasbiy malakasini shakllantirish. Monografiya. Toshkent. Fan - 2016 y. - 120 b, Axmedova L.T. Teoriya i praktika

Kasbiy pedagogik ta'lim aksiologyiyasi va akmeologiyasini rivojlantirish bo'yicha MDH davlatlarida O.A.Artemeva, N.D.Galskova, V.I.Baydenko, R.P.Milrud, Bondarevskaya, E.V, E.I.Passov, A.A.Leontev, O.A.Zarjiskaya, V.V.G.Safonova, P.Ya.Galperin, N.D.Zarubina, N.I.Zhinkin, I.V.Arnold, A.R.Luriya, Ye.A.Yunina, V.G.Kprisko<sup>5</sup>lar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishning didaktik masalalari bilan K.Bach, L.W.Anderson, S.Borg, R.Ellis, T.S.Farrel, J.K.Hall, L.D.Freeman, J.K.Richards, S.J.Savignon, J.Smith, B.N.Amakeme, A.N.Anderton, Zhao Chong-yuan, S.Wang, S.Walsh<sup>6</sup>larning ilmiy tadqiqot

---

obucheniya kasbiynoy russkoy rechi studentov-filologov. –Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 200 s, 153. Kuchimova N.T Oliy ta'lim tashkiloti talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish. Ped. fanl. nomz. diss. Avtoref. –Т., 2023. – 11 b, 152, Karaxodjaeva M.Nofilologik guruh talabalari kasbiy nutqini fe'l asosida shakkantirish metodikasi. Ped. fan. nom. .diss. –Toshkent, 2002. –156 b, 154, Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlaridan foydalananishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Avtoref. ... kand. ped. nauk. –Т.:2018. –24 b, 160. Асиева Г.А Божхона ва солиқ йўналишлари талабаларининг давлат тилида касбий мулоқот юритиш компетенциясини ривожлантириш (рус гурухларда ): Diss.. док.пед.наук.-Тошкент, 2017.-B.25, 161, Махкамова Г.Т.«Формирование межкультурной компетенции студентов филологического ВУЗА (английский язык)» Дис. ... док..пед.наук. -Т.: УзГУМЯ, 2011, 155, Mamarajabov B.B. bulajak tarjimonlarning kasbiy mulokot kompetensiyasini lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi asosida rivojlantirish. Ped. fanl. nomz. diss. Avtoref. –Т., 2023. – 11 b, 157, Sadikov R.M. Методика формирования лингвометодической компетентности будущих учителей начальных классов. Ped. fanl. nomz. diss. Avtoref. –Т., 2022. – 11 b.

<sup>5</sup> Mazkur qism quyidagi manbalar asosida yoritilgan: Артемева О.А. Активизация познавательной деятельности студентов вуза при обучении иностранному языку на основе учебно-ролевых игр. - Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 1997. - 192 с, Галскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам, М.: АРКТИ, 2003. – 192 с, Байденко В. И. Компетентностный подход к проектированию ГОС высшего профессионального образования. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. -120 с, Мильруд Р.П. Методика развивающего обучения средствами иностранного языка в школе. - Москва-Тамбов, 1991. - 121 с, Бондаревская, Э.В. Личностно-ориентированная модель воспитания в школе: учеб. пособие / Э.В. Бондаревская. – Ростов н/Д: Издател'ский центр «Март», 2000. – 208 с, Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 222 с, Леонтьев А. А. Психофизиологические механизмы речи //Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. –М., 1970. –С.320-368, 43. Заржиская О.А. Образ тела как предмет психологического исследования// Журнал практического психолога. - М., 1998. -№ 7. - С. 14-18, Сафонова ВВ., Соловова Е.М., Бим И.Л., Биболетова М.З., Кузьмина Л.Г. К концепции 12-летнего образования. Иностранные языки// Иностранный язык в школе. - 2000. - № 4. - С. 4 – 10, Гальперин П.Я. Введение в психологию: Учебное пособие для вузов. - 2-е изд. - М.: "Книжный дом" Университет", 2000. - 336с, Зарубина Н.Д. Текст: лингвистический и методический аспекты. - М., 1981.-395 с, Зинкин, Н. И. (1998). Реч как проводник информатии. Moscow: Наука, 21, Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. - М.: Высшая школа, 1991. - 169 с, 36. Лурия А.Р. Язык и сознание. Под ред. Е.Д. Хомской. - Ростов-на- Дону.: Изд-во "Феникс", 1998. - 416 с, Юнина Е.А. Риторическая культура и ее современные проблемы. - Автореф. дис.... доктора философ, наук. - Екатеринбург, 1998. - 31 с, Кприско В.Г. «Психология и педагогика» М.: Харвест – ACT 2000. 26 с.

<sup>6</sup> Mazkur qism quyidagi manbalar asosida yoritilgan: Bach K. and Harnish R.M. Linguistic Communication and Speech Acts. -Cambridge, Mass.: MIT Press. 1979. - 236 p. 324, Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, Borg, S. (2003). Teacher cognition in language teaching: A review of research on what language teachers think, know, believe, and do. Language Teaching, 36(2), 81–109, Ellis, R. (2005). Instructed Second Language Acquisition: A Literature Review. Report to the Ministry of Education, New Zealand, pp. 1-58, Farrell, T. S. C. (2019). Reflective language teaching: Practical applications for TESOL teachers. Bloomsbury. P -76, Hall, J. K. (2019). Essentials of SLA for L2 teachers. Routledge. P – 10, Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2013). Techniques and Principles in Language Teaching (3rd ed.). Oxford University Press. Pp 85-120, Richards, J. C. (2011). Competence and Performance in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 129, Savignon, S. J. (2018). Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. McGraw-Hill. Pp 80-135, Smith, J. (2005). Teaching Foreign Languages: A Professional Approach. Oxford: Oxford University Press. P. 80-108, Amakeme, B. N. (2024). Qualitative study on teacher management strategies fostering inclusive learning and social development

ishlarida Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi masalalarini tadqiq etishgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar vamutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron- ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy).

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, uning samaradorligini ta'minlovchi modelini yaratish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutqiy faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining nutqiy faoliyatini rivojlantirish strategiyalarini aniqlashtirish;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishning invariant taksonomik modelini takomillashtirish;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishning metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishning samaradorligini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lajak xorijiy til o'qituvchisini tayyorlashning metodik tizimi bo'lib, pedagogik tajriba-sinov ishlari O'zbekiston Milliy pedagogika universitetida 106 nafar, Buxoro davlat pedagogika institutida 102 nafar hamda Qo'qon davlat universitetida 102 nafar talaba ishtirokida o'tkazildi.

**Tadqiqotning predmetini** bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy, metodik, elektron, sunniy intellekt manbalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil etish, oliy ta'lim muassasalaridagi interfaol pedagogik tajribalarni o'rganish, anketa, suhbat, kuzatish, test, loyihalash, ekspert baholash, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

## **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutqiy faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari nutq uzviyligini ta'minlash va semantik kodlash jarayonining faollashuviga ko'ra "kognitiv-semantik moslashuv" tadqiqot birligi orqali autentik nutqiy materiallarni real muloqot vaziyatlarida tahlil qilish hamda kasbiy diskursning intonatsion-xissiy o'zgaruvchanligi orqali muloqotni optimallashtirish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda takroriy mashq orqali mustahkamlash va alternativ ifodalash kabi ustuvor nutqiy strategiyalardan foydalanishning til birliklarini tez va to'g'ri qo'llash, nutqiy bo'shliqlarni to'ldirish va alternativ ekspressiv vositalar bilan mazmunni yetkazish imkoniyatlariga ta'siri kollaborativ nutq faollashuvi asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish taksonomik modeli nutqning retseptiv, reproduktiv, produktiv va interaktiv darajalarini informativ va ekspressiv turlar bilan uyg'unlashtirishning "taksonomik-konseptual variativlik" asosiga ko'ra nutqiy faoliyatning mazmun-faoliyat birligini kognitiv va kommunikativ yondashuvlar ta'sirida integrativ professional nutqiy shakllanish yo'li bilan takomillashtirilgan;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish metodikasi Socratic Questioning, Toulmin Argument va Case Study kabi mantiqiy-tafakkur texnologiyalarining "kommunikativ-tafakkur faollashuvi" variativligiga ko'ra kognitiv-kommunikativ va pragmatik mashqlar tizimini shakllantirish hamda kommunikativ ssenariylar va kasbiy simulyatsiyalardan samarali foydalanish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish samaradorligi nutqiy o'sish trayektoriyasini aniqlashga qaratilgan mantiqiy tafakkur texnologiyalarining faol dinamikasiga ko'ra "nutqiy rivojlanish faoliyati yo'nalishi" asosida kognitiv-mustaqlil, konstruktiv aniqlik va aksiologik-refleksiv darajalarning dinamik va obyektiv baholanishi orqali aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish interfaol texnologiyalardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan qo'llanmalar yaratilgan, amaliy mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy nutq faoliyatini bosqichma-bosqich va variativligini adaptiv sinxronlashtirish asosida takomillashtirilgan, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatda strategik loyihalashtirish asosida mustaqlil ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiyalarining integratsiyasi asosida dars amaliyotlari mazmuniga singdirilgan, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini fanlar integratsiyasi asosida rivojlantirishning baholash ko'rsatkichlari va mezonlari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga

asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingen natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish muammosiga oid pedagogik va metodik nazariyalarni kengaytiradi hamda mazkur jarayonning mohiyati, mazmuni va tuzilmasini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish jarayonining pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilishi ilmiy jihatdan asoslanib, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi fanida ushbu yo'nalishning nazariy asoslari boyitiladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar, umumlashmalar va nazariy qarashlar chet tillarni o'qitish metodikasi sohalarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, loyihalashtirilgan metod asosida, xususan, ingliz tili fanida interfaol ta'lim vositalaridan samarali foydalanish shakllari va pedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutq faoliyatini tarkib toptirish, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitish metodikasining mazmuni va texnologik asoslarini rivojlantirishda foydalanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. Taklif etilgan model va metodika asosida o'quv fanlari dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar hamda metodik qo'llanmalarni takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan mezon va ko'rsatkichlar bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy nutq faoliyati rivojlanganlik darajasini baholashda foydalaniladi. Natijalardan malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar hamda amaliy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot materiallari o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlashda va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishda bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish bo'yicha olingen natijalar asosida:**

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutqiy faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari nutq uzviyligini ta'minlash va semantik kodlash jarayonining faollashuviga ko'ra "kognitiv-semantik moslashuv" tadqiqot birligi orqali autentik nutqiy materiallarni real muloqot vaziyatlarida tahlil qilish hamda kasbiy diskursning intonatsion-xissiy o'zgaruvchanligi orqali muloqotni optimallashtirish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar "Methodology of teaching English to non-native speakers chapter 2" darslik mazmuniga singdirilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 04-iyuldaggi 22-01-132/22-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kabi y nutq faoliyatini

rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari kengaytirlgan;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda takroriy mashq orqali mustahkamlash va alternativ ifodalash kabi ustuvor nutqiy strategiyalardan foydalanishning til birliklarini tez va to'g'ri qo'llash, nutqiy bo'shliqlarni to'ldirish va alternativ ekspressiv vositalar bilan mazmunni yetkazish imkoniyatlariga ta'siri kollaborativ nutq faollashuvi asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar "Methodology of teaching English to non-native speakers chapter 2" darslik mazmuniga singdirilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 04-iyuldaggi 22-01-132/22-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish strategiyalari samaradorligi aniqlangan;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish taksonomik modeli nutqning reseptiv, reproduktiv, produktiv va interaktiv darajalarini informativ va ekspressiv turlar bilan uyg'unlashtirishning "taksonomik-konseptual variativlik" asosiga ko'ra nutqiy faoliyatning mazmun-faoliyat birligini kognitiv va kommunikativ yondashuvlar ta'sirida integrativ professional nutqiy shakllanish yo'li bilan takomillashtirishga oid tavsiyalar "Methodology of teaching English to non-native speakers chapter 2" darslik mazmuniga singdirilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 04-iyuldaggi 22-01-132/22-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishning modeli takomillashtirilgan;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish metodikasi Socratic Questioning, Toulmin Argument va Case Study kabi mantiqiy-tafakkur texnologiyalarining "kommunikativ-tafakkur faollashuvi" variativligiga ko'ra kognitiv-kommunikativ va pragmatik mashqlar tizimini shakllantirish hamda kommunikativ ssenariylar va kasbiy simulyatsiyalardan samarali foydalanish orqali takomillashtirishga oid tavsiyalar "Distinct English" darslik mazmuniga singdirilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 04-iyuldaggi 22-01-132/22-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining nutqiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish samaradorligi nutqiy o'sish trayektoriyasini aniqlashga qaratilgan mantiqiy tafakkur texnologiyalarining faol dinamikasiga ko'ra "nutqiy rivojlanish faoliyati yo'nalishi" asosida kognitiv-mustaqlil, konstruktiv aniqlik va aksiologik -refleksiv darajalarning dinamik va obyektiv baholanishi orqali aniqlashga oid tavsiyalar "Distinct English" mazmuniga singdirilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 04-iyuldaggi 22-01-132/22-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishning samaradorligini takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:** mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi:** dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ishlar, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi:** dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 283 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejali

bilan bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari hamda ularning ishonchhliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish pedagogik zarurati, kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyalari va paradigmalari yoritilgan.

XXI asrda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning keskin oshishi xorijiy til o'qituvchilariga nisbatan yuqori darajadagi kasbiy talablarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur holat bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishni taqazo etmoqda. Kasbiy nutq faoliyati tushunchasi o'qituvchining kasbiy vazifalarini bajarishda til vositalari orqali fikr almashish, ta'lim maqsadlarini amalga oshirish, talabalarda kommunikativ kompetensiyanı shakllantirish faoliyati sifatida qaraladi.

Kasbiy nutq faoliyati o'qituvchining ta'lim berish jarayonida og'zaki va yozma muloqot vositasida amalga oshiriladigan funksional jarayonidir. Bu faoliyat quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

## KASBIY NUTQ FAOLIYATI ELEMENTLARI

Kommunikativ kompetensiya – lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni, shuningdek pragmatik hamda sotsiomadaniy komponentlarni o‘z ichiga olgan integrativ tuzilma bo‘lib, u til vositalardan kasbiy-pedagogik muloqotning maqsadi, sharoiti va mazmuniga mos holda foydalanishni ta‘minlaydi.

Lingvistik kompetensiya – o‘qituvchining til tizimi, uning fonetik, leksik va grammatic birliklari hamda ularning me’yoriy qo’llanishini chuqur bilishi va anglab yetishini ifodalaydi.

Nutq kompetensiyasi – o‘qituvchining til vositalardan foydalanib, o‘z bilim va tajribasini og’zaki va yozma shakllarda mantiqan izchil, me’yoriy hamda kommunikativ vaziyatga mos holda ifodalay olish qobiliyatini anglatadi.

### 1-rasm. Nutq faoliyati elementlari

Nutq faoliyatini rivojlantirishda til va taffakur o’rtasidagi munosabatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq. Til lingvistik ifoda sifatida ong va tafakkur obyekti o’rtasida muhim vosita sifatida joylashgan. Til orqali voqelikni anglash va uni boshqalarga yetkazish jarayoni esa tafakkurning ichki mexanizmlari bilan bevosita bog’liqdir. Verbal tafakkur, nonverbal tafakkurdan farqli ravishda, so’zlar yordamida amalga oshiriladi, va bo’lajak xorijiy til o‘qituvchisi o‘z tafakkurida hodisalar va jarayonlarning tasvirlari orqali sub’ekt va ongni bog’laydi. Boshqacha qilib aytganda, tafakkur predmetlari, asosan, atrof-muhitdagi voqelik bilan tasvirlari fikrlar orqali muloqot qiladi. Bo’lajak xorijiy til o‘qituvchisi idrok etadigan narsalar, tashqi yoki ichki dunyoning tasvirlari bo‘lib, ular individual ravishda modellashadi. Dunyoning obrazli tasvirlari til aloqasi orqali uzatiladi. Demak, til aloqasi bo’lajak xorijiy til o‘qituvchisining ongida real yoki xayoliy obyektlarning obrazidir. Tafakkurda yuzaga kelgan obrazlar shaxs uchun tushunish va muloqot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu obrazlarni boshqalarga yetkazish jarayonida esa til asosiy vosita hisoblanadi. Obrazlar inson ongida voqelikning kognitiv modelini yaratadi, bu model esa til vositasi orqali ifodalanadi. Zero, inson o‘zining ichki kechinmalari, kuzatgan hodisalari yoki tushungan g’oyalari haqida boshqalar bilan muloqot qilish uchun bu obrazlarni ma’no, shakl va vosita jihatidan til orqali qayta kodlaydi. Aynan shu kodlash va uzatish jarayoni til aloqasi mexanizmi deb ataladi. Til aloqasi mexanizmi inson idrokining chiquvchi voqelikni (obekt, hodisa, shaxs, jarayon va boshqalarni) lingvistik voqelikka aylantirishi va uni aloqa jarayonlarida ifodalashidir. Ushbu jarayonda inson tafakkurida shakllangan obraz va tushunchalar semantik kodlash mexanizmi orqali til birliklariga aylantiriladi. Boshqacha aytganda, inson anglagan, kuzatgan yoki his qilgan voqelikni ongli tarzda nutqiy modelga keltiradi va uni til vositasida boshqalarga yetkazadi. Shu yo’l bilan inson ichki kognitiv mazmunni tashqi lingvistik shaklga keltiradi. Bo’lajak xorijiy til o‘qituvchisini kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda “obrazlar” ya’ni “tasvir”ning ahamiyatini tushunish muhim sanaladi chunki tushunchalar tizimi gipotezalar, nazariyalar, muayyan fanlar va dunyoqarashlar shaklidagi

tasvirlarni tashkil etadi. So'zlar va turli belgilar modellari esa bu tasvirlarning moddiy ifodasidir. Bu esa shuni anglatadiki, inson tafakkurida shakllangan ichki obrazlar (tasvirlar) til orqali tashqi nutqiy ko'rinishga ega bo'ladi. Ular til birliklari vositasida tashqi dunyo bilan muloqotga xizmat qiluvchi semantik shaklga kiradi. Bundan kelib chiqadiki, tasvir va uning nutqiy ifodasi o'rtasida semantik kodlash va dekodlash mexanizmlari mavjud bo'lib, bu mexanizmning to'g'ri ishlashi uchun o'qituvchi o'z fikrlarini aniq, tushunarli va kontekstga mos tarzda ifodalay olishi lozim. Aynan shu sababli, bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining nutqiy tafakkurini va faoliyatini rivojlantirishda lingvistik vositalarning ma'no-mazmun jihatdan aniqligi, muloqotdagi pragmatik uyg'unlik, hamda psixolingvistik muvozanat ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy nutq faoliyati bu xorijiy til o'qituvchisining kasbiy vazifalarini amalga oshirish jarayonida til vositalaridan ongli, maqsadli, didaktik va kommunikativ jihatdan samarali foydalanish faoliyatidir. Shu bois, mazkur faoliyatni samarali rivojlantirish uchun zamonaviy ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq. Tadqiqot davomida L.S.Vigotskiy<sup>7</sup>, I.P.Pavlov<sup>8</sup>, J.L.Ostin<sup>9</sup>, F.Sossyur<sup>10</sup> kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida nutqning paydo bo'lishi, ijtimoiy-tarixiy sharoitda shakllanishi, ichki va tashqi nutq fazilatlari, shuningdek, nutq orqali bilimlar konstruksiyasi jarayonlari tahlil etildi. Lev Vigotskiy<sup>11</sup> nutqni ijtimoiy tajribaning muhim vositasi sifatida qarab, uning rivojlanishi insonning kognitiv jarayonlari bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. J.L.Ostin<sup>12</sup> nutq faoliyatini uchga bo'lgan: lokutiv faoliyat: gapning lingvistik ma'nosi, illokutiv faoliyat: gapning kommunikativ maqsadi, perlokutiv faoliyat: gapning tinglovchiga ta'siri. Sossyurga ko'ra, til umumiy ijtimoiy tizim bo'lsa, nutq esa, til tizimining individual namoyon bo'lish shaklidir. Ushbu yondashuvning bu boradagi ahamiyati shundaki, til tizimi va nutq faoliyati o'rtasidagi farqni tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogikada ko'pgina paradigmalar bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantiruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Bularga *kommunikativ paradigma*, *kognitiv paradigma*, *interaktiv paradigma*, *pragmatik paradigmalarni* keltirish mumkin.

*Kommunikativ paradigma* bo'lajak o'qituvchining kasbiy nutq faoliyatini o'rgatishda asosiy mezonlardan biridir. Unda til muloqot vositasi sifatida o'rganiladi va unda talabaning interaktiv faoliyatini rivojlantirishga urg'u beriladi. Bu paradigma doirasida o'qituvchi, talabalarni real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarga jalb qiladi, ularning dialogik va monologik nutq

<sup>7</sup> Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press. P.78

<sup>8</sup> Pavlov, I. P. (1927). *Conditioned reflexes: An investigation of the physiological activity of the cerebral cortex*. London: Oxford University Press. pp. 1–56, 101–145.

<sup>9</sup> Austin J.L. How to do Things with Words. - Oxford, Oxford Univ. Press, 1962.-421 p.

<sup>10</sup> Saussure, F. de. (1916). *Course in general linguistics* (C. Bally & A. Sechehaye, Eds.; W. Baskin, Trans.). New York, NY: Philosophical Library.

<sup>11</sup> Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press. P.78


<sup>12</sup> Austin J.L. How to do Things with Words. - Oxford, Oxford Univ. Press, 1962.-421 p.

ko'nikmalarini rivojlantiradi.

*Kognitiv paradigma.* o'qituvchining kasbiy nutq faoliyatini o'rganishda asosiy ahamiyatga ega, chunki bu yondashuv nutqiy faoliyatni insonning bilish jarayonlari e'tibor, xotira, fikrlash va idrok orqali izohlaydi. Xorijiy til o'qituvchisi o'z kasbiy faoliyati davomida pedagogik jarayonni puxta tushunib, dars jarayonini samarali tashkil etishi maqsadga muvofiq. Bu paradigmaga nutq faoliyatini faqat talaffuz, grammatika va leksikaga emas, balki nutqning ma'no va mazmunini shakllantirish hamda talabalarning tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Kognitiv paradigmaga ko'ra, o'qituvchi nutqni to'g'ri qabul qilib, uning mazmunini aniqlash orqali ta'limni tashkil etadi.

*Interaktiv paradigma.* Interaktiv paradigma, o'qituvchining nutq faoliyatini talabalar bilan doimiy aloqa va bir-birining fikrlariga ta'sir o'tkazish orqali tashkil qilinadi. Bu paradigmaga asosan, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot jarayoni o'zgarishlarga ega bo'ladi va yanada takomillashadi. Interaktiv paradigmanga ko'ra, o'qituvchining asosiy vazifasi talabalarning muloqot va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularni mustaqil faoliyat olib borishga qo'llab-quvvatlashdir.

*Pragmatik paradigma.* Pragmatik paradigma ta'limda nutq faoliyatini hayotiy va amaliy jihatdan takomillashtirishga yo'naltirilgan tushunchani anglatadi. Uning asosiy maqsadi talabalarga faqat nazariy bilimlar emas, balki ularning kundalik hayotda zarur bo'ladigan amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishdir. Bu paradigmada o'qituvchi nutqni ma'lumot yetkazish vositasi sifatida emas, balki talabalarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asosiy vosita sifatida ko'rildi. Sanab o'tilgan paradigmalar har biri o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lsa-da, bo'lajak xorijiy til o'qituvchisi faoliyatining murakkab, kontekstual va ko'p qirrali tabiatini to'liq namoyon bo'lishini ta'minlay olmaydi. Shu boisdan ham, ushbu dissertatsiyada integratsiyalashgan kognitiv-diskursiv paradigmani ilgari surishni lozim deb topdik.



Taklif etilayotgan integratsiyalashgan kognitiv-diskursiv paradigmaga bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish jarayonida mavjud bo'lgan zamonaviy ilmiy-pedagogik ehtiyojlardan kelib chiqqan holda shakllantirilgan bo'lib, u o'qituvchining kasbiy nutq faoliyatini bilish jarayonlari (e'tibor, xotira, tafakkur, tushunish) va real nutqiy kontekst (ijtimoiy rol, vazifa, janr, muomala vositasi) asosida tahlil etishga asoslanadi.

Bu paradigma doirasida nutq nafaqat axborot uzatish yoki grammatika va fonetikani qo'llash amaliyoti, balki o'qituvchining ichki ong jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda, tashqi diskursda ifoda topadigan murakkab va dinamik tizim sifatida talqin qilinadi. Nutq ayni paytda ichki refleksiya, tashqi ta'sir, madaniy kontekst va shaxsiy identitetning integratsiyalashgan shakli sifatida o'rganiladi. Ilmiy manbalar tahlili asosida shuni aniqladikki, aynan kognitiv yondashuv nutqning individual ong bilan bog'liq xususiyatlarini olib bersa, diskursiv yondashuv uning tashqi ijtimoiy shakllanishini ifodalaydi. Integratsiyalashgan kognitiv-diskursiv paradigma bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini chuqur, tizimli va fanlararo kontekstda tahlil etish imkonini beruvchi muqobil ilmiy paradigma sifatida taklif etilmoqda. U yuqorida ta'kidlangan paradigmalarning fragmentar mohiyatini bartaraf etish, kasbiy nutqni yaxlitlikda va kontekstual murakkablikda o'rganish, hamda o'qituvchining nutqiy salohiyatini ongli, samarali va maqsadli tarzda shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy nutqida til birliklarini tez, aniq va kontekstga mos qo'llash qobiliyatini shakllantirish, nutqiy uzilishlar va leksik-grammatik bo'shliqlarni bartaraf etish, hamda mazmunni turli ekspressiv vositalar orqali yetkazish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan strategiyalar tahlil etildi.

Takroriy mashq orqali mustahkamlash strategiyasi ma'lum grammatik strukturalar, dialogik model va kasbiy terminlarni qayta-qayta ishslash orqali ularni nutqda faol va xatosiz qo'llash ko'nikmasini shakllantirish. Bu strategiya orqali talabalarda nutqning tezkorligi va lingvistik aniqligi sezilarli darajada oshiriladi.

Alternativ ifodalash strategiyasi bir xil mazmunni turli sintaktik konstruksiyalar, leksik variantlar yoki nutqiy rollar orqali ifodalash mashqlari. Bu strategiya orqali bo'lajak o'qituvchilarda nutqiy moslashuvchanlik, ijodiy ifodalash qobiliyati va tafakkur rang-barangligi rivojlantiriladi.

Umuman olganda xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish kompleks, ko'p omilli, shaxsga yo'naltirilgan, psixolingvistik va ijtimoiy-kognitiv jarayon bo'lib, uni samarali rivojlantirish muayyan paradigmalarga asoslanadi, ular orqali xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi chuqur integratsiyalashgan, kommunikativ jihatdan samarali va zamonaviy kompetensiyalar majmuasiga ega bo'lgan pedagogik shaxs sifatida shakllanishiga erishiladi.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish modeli va mazmuni"** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyati taksonomiyasi va mazmuni, didaktik imkoniyatlari va modeli bayon qilingan.

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini samarali rivojlantirish uchun uning tuzilmasini, bosqichlarini va rivojlanish mexanizmlarini taksonomik asosda o'rganish maqsadga mufofiq. Nutq taksonomiyasi nutq faoliyatini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni (ya'ni, qanday

nutq turlari, bosqichlar, darajalar mavjudligini) tartibga solish va ularni tizimli ravishda tasniflash demakdir. Masalan, o'qituvchining kasbiy nutqi dars tushuntirish nutqi informativ (axborot yetkazuvchi), baholash nutqi - ekspressiv (emotsional-aksiologik), savol-javob esa interaktiv (ikki tomonlama aloqani ifodalovchi) funksiyalarga ega bo'ladi. Har bir nutq turi maqsadiga ko'ra farqlanadi bu nutq faoliyatining taksonomiyasi hisoblanadi. Ushbu dissertatsiyada xorijiy til o'qituvchisi kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, B.Bloom<sup>13</sup>, S.Vigotskiy<sup>14</sup>, A.Leontyev<sup>15</sup>, M.Kanale va M.Sveyin<sup>16</sup> kabi olimlarninga nazariyalarini tizmlahstirib "Kasbiy nutq faoliyati taksonomiyasi" konseptual modeli ishlab chiqishga harakat qildik. Mazkur model xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda lingvistik, psixologik, metodik va kommunikativ komponentlarning integratsiyasiga asoslangan. Biz taklif qilayotgan bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyati taksonomiyasi quyidagi asosiy komponentlarga ega:

### Nutq faoliyati taksonomiyasi

Lingvistik komponent

Psixologik komponent

Metodik komponent

Kommunikativ komponent

### 3-rasm. Ingliz tilini o'qitishda nutq faoliyati taksonomiyasi komponentlaridan foydalanish.

1. *Lingvistik komponent*: bu komponent o'qituvchining lingvistik bilimlarini o'z ichiga olib, fonetika, leksika, grammatika va uslubiyat bo'yicha chuqr bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Bo'lajak o'qituvchi nafaqat tilning qoidalalarini mukammal bilishi, balki ularni dars jarayonida muloqot vositasi sifatida qo'llay olishi zarur. Shu bilan birga, xorijiy tilning madaniy jihatlari va lingvokulturologik xususiyatlarini o'zlashtirish ham muhimdir.

2. *Psixologik komponent*: psixologik jihatdan bo'lajak o'qituvchi o'z nutq faoliyatida tinglovchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu, birinchi navbatda, auditoriya bilan samimiy munosabat o'rnatish, psixologik to'siqlarni bartaraf etish va motivatsiyani shakllantirishni o'z ichiga oladi.

3. *Metodik komponent*: metodik komponent bo'lajak o'qituvchining didaktik vositalardan samarali foydalanish, turli metod va texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishni talab qiladi. Bu jarayonda zamonaviy dars ishlanmalari, interaktiv usullar va axborot-

<sup>13</sup> Bloom, B. S. (Ed.). (1956). Taxonomy of Educational Objectives. Volume 1: Cognitive Domain. New York: David McKay Company. P. 56

<sup>14</sup> Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. P.78-102

<sup>15</sup> Леонтьев А. А. Психофизиологические механизмы речи //Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. -М., 1970. -С.320-368

<sup>16</sup> Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1-47.

kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining professional darajasini oshiradi.

*Kommunikativ komponent* kommunikativ kompetensiya muvaffaqiyatli nutq faoliyatining markaziy qismidir. Bu o'qituvchining o'z fikrlarini aniq, tushunarli va lo'nda yetkazish, muloqotning pragmatik jihatlariga e'tibor qaratish va madaniyatlararo muloqotda moslashuvchanlik ko'rsatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Nutq faoliyatining taksonomiyasi bo'yicha har bir komponent o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi, bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik bilimlar nafaqat til qoidalarini o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki ularni amaliy nutq faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olishni ham ta'minlaydi. Psixologik jihatdan, o'qituvchi tinglovchilarining ehtiyojlarini tushunishi va ularga moslashishi, ularning motivatsiyasini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Metodik komponent esa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo'llash orqali, dars jarayonini samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. Kommunikativ komponent esa, nutq faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim bo'lib, o'qituvchining fikrlarini aniq, tushunarli va madaniyatlararo muhitda moslashuvchan tarzda yetkazishi, shuningdek, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nutq faoliyati taksonomiyasini yanada chuqurroq o'rganishda uni bosqichma-bosqich shakllanuvchi darajalar orqali tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu darajalar o'qituvchining nutqiy faoliyati qanday shakllanib borishini ifodalaydi va o'z navbatida ta'lim jarayonida turli nutqiy vazifalarni bajarish qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyotda ko'p hollarda quyidagi nutq darajalari ajratiladi:

Reseptiv daraja – til materiallarini tushunish va qabul qilish bosqichi (tinglab tushunish, o'qib tushunish),

Reproduktiv daraja – tayyor shakldagi ifodalarni takrorlash, qayta ishlatish bosqichi (diqqat bilan eshitilgan yoki o'qilgan matnlarni takrorlash),

Produktiv daraja – talabaning mustaqil nutq ishlab chiqish bosqichi (og'zaki yoki yozma fikr bildirish),

Interaktiv daraja – faol muloqot qilish, savol-javob, fikr almashuvga asoslangan dialogik nutq bosqichi.

Mazkur darajalar qat'iy tizimli ketma-ketlikda emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi holda shakllanadi, biroq didaktik maqsadlarda murakkablikning ortib borishi prinsipiga asoslanadi va o'qituvchining kasbiy nutq faoliyatiniiz izchil shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Receptiv va produktiv nutq turlari asosiy ikki faoliyat turi, interaktivlik esa, alohida bosqich emas, balki produktiv nutqning kommunikativ shakli sifatida tasniflanadi. Tadqiqotimiz muammosi xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lganligi sababli interaktiv darajani alohida bosqich sifatida berishga qaroq qildik. Produktiv darajada nutq individual tarzda shakllansa, interaktiv darajada nutq real pedagogik muloqot sharoitida, tezkor javob, muomala strategiyalarini tanlash va kommunikativ boshqaruv bilan

tavsiflanadi. Shu sababli interaktivlik bu yerda produktiv nutqning oddiy ko'rinishi emas, balki murakkab kasbiy faoliyat darajasini ifodalaydi. Nutq faoliyatining taksonomiyasi bo'yicha belgilangan darajalar (masalan, receptiv, reproduktiv, produktiv, interaktiv) orqali o'qituvchining nutqiy rivojlanish yo'nalishlari aniqlanadi. Nutq faoliyati taksonomiyasi o'z ichiga olgan komponentlar (lingvistik, psixologik, metodik, kommunikativ) va darajalar (receptiv, reproduktiv, produktiv, interaktiv) pedagogik jarayonda bir butun tizim sifatida amal qiladi. Taksonomiya pedagogik jarayonda bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni uzviy va bosqichli tarzda shakllantirishni ta'minlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Masalan, o'qituvchi til materialini receptiv darajada idrok qilganidan so'ng, uni reproduktiv darajada takrorlaydi, keyinchalik esa produktiv bosqichga o'tib, o'z fikrini mustaqil ifoda etadi. Yakuniy bosqich interaktiv daraja esa, real kommunikativ vaziyatlarda erkin, maqsadli va ijtimoiy moslashuvchan muloqotni talab qiladi.

Kasbiy nutq faoliyatini tarkibiy tuzilishini belgilovchi retseptiv, reproduktiv, produktiv va interaktiv darajalar o'qituvchi nutqining izchil rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Ushbu darajalar tilni o'zlashtirishning faqat formal ko'rinishini emas, balki nutqning informativ mazmunni yetkazish va ekspressiv jihatdan uni emotSIONAL-pragmatik shakllantirish kabi ikki asosiy funksional turini uyg'unlashtirgan murakkab tizimini ham ifodalaydi. Retseptiv bosqichda talaba asosan ma'lumotni qabul qilish, kontekstni tushunish va semantik belgilarni ajratishga yo'naltirilgan bo'lsa, ekspressivlik ushbu bosqichda prosodik signallarni sezish, ovoz ohangidagi farqlarni idrok etish orqali namoyon bo'ladi.

Reproduktiv bosqich esa qabul qilingan til birliklarini mazmunan qayta yaratish, sintaktik strukturalarni moslashtirish va kasbiy leksikani vaziyatga ko'ra qo'llash ko'nikmalarini bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda ekspressiv funksiya fikrni stilistik moslikda ifodalash, intonatsion shaklni qayta tiklash va emotSIONAL komponentni yo'naltirish orqali boyitiladi. Produktiv bosqichda esa informativ tur o'z fikrini mustaqil tarzda yaratish, dalillash va mazmun generatsiya qilish bilan bog'liq bo'lsa, ekspressiv komponent nutqni auditoriyaga mos ravishda yo'naltirish, alternativ ekspressiv vositalardan ongli foydalanish, nutqiy bo'shliqlarni to'ldirish kabi jarayonlar orqali yuzaga chiqadi.

Interaktiv bosqich o'qituvchining muloqotni boshqarish, suhbat oqimini tartiblash, pedagogik vaziyatga mos kommunikativ qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini talab qiladi. Bu darajada ekspressiv tur emotSIONAL boshqaruv, intonatsion o'zgarishlar, pauza strategiyalari va vaziyatga mos nutqiy ohangni tanlash orqali pedagogik muloqotning samaradorligini oshiradi. Shunday uyg'unlik natijasida darajalar o'rtasida taksonomik-konseptual variativlik yuzaga keladi, u esa o'qituvchining nutqiy faoliyatini kontekstga mos ravishda modellashtirish imkonini kengaytiradi.

Quyida keltirilgan jadvalda nutq faoliyati darajalari va komponentlari aks ettirilgan, har bir komponentning nutqiy rivojlanish bosqichlaridagi faoliyat

shakllarini tizimli tarzda bayon etilgan (1-jadval).

Taklif etilayotgan nutq faoliyati taksonomiysi birgina pedagogik amaliyot yoki individual model bilan cheklanib qolmasdan, u zamirida yotgan turli xil taksonomik yondashuvlar bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur model mazmunan Bloom<sup>17</sup> tomonidan taklif etilgan kognitiv taksonomiya, Anderson va Kratvol<sup>18</sup> tomonidan takomillashtirilgan bilim faoliyat darajalari, Leontyev<sup>19</sup>ning nutqiy faoliyat nazariyasi, va Kanale va Sveyin<sup>20</sup> hamda Bayram<sup>21</sup>larning kommunikativ kompetensiya haqidagi tasniflariga tayanadi.

### 1-jadval.

#### Ingliz tilini o'qitish amaliyotida nutq faoliyati darajalarining tasniflanishi.

Darajalar	Lingvistik komponent	Psixologik komponent	Metodik komponent	Kommunikativ komponent
Receptiv	Fonetik, leksik birliklarni tinglab/o'qib tushunish	Eshituvchanlik, e'tibor, auditoriyani idrok etish	Didaktik materialni tahlil qilish, tayyor darsni kuzatish	Passiv muloqotni anglash, jest-mimoikani sezish
Reproduktiv	Til birliklarini to'g'ri talaffuz bilan takrorlash	Qo'rquvni yengish, mustahkamlovchi muloqotga kirishish	namunalar asosida amaliy mashqlar ishlab chiqish	Oddiy savol-javoblar asosida ijtimoiy muloqotda qatnashish, nutq namunalarini takrorlash
Produktiv	O'z fikrini mustaqil og'zaki yoki yozma ifoda qilish	Fikr bildirishda o'ziga ishonch, emotsional bog'liqlik va individual nuqtai nazarni ifodalash	Mustaqil tarzda dars rejlashtirish, topshiriqlarni moslashtirish va differensial usullarni qo'llash	Argumentatsiyalanga n muloqotda ishtirok etish, madaniyatlararo diskussiyalarda faol bo'lish
Interaktiv	Nutqiy birliklarni erkin va kontekstual ravishda real kommunikativ vaziyatda qo'llash	Auditoriyani psixologik boshqarish, muloqotga jalb qilish va interaktiv muhitda faoliyat yurish	Interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalari orqali muloqotni boshqarish	Ijtimoiy muloqot, madaniyatlararo o'zaro anglashuv

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish bosqichlari pedagogik jarayonning uzviy qismini tashkil etadi. Ushbu

<sup>17</sup> Bloom, B. S. (Ed.). (1956). Taxonomy of Educational Objectives. Volume 1: Cognitive Domain. New York: David McKay Company. P. 56

<sup>18</sup> Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. P.78-102

<sup>19</sup> Леонтьев А. А. Психофизиологические механизмы речи //Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. –М., 1970. –С.320-368

<sup>20</sup> Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1-47.

<sup>21</sup> Byram M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

faoliyatning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi: avval til vositalarini o'zlashtirish, so'ngra ularni dars jarayonida qo'llay olish, keyinchalik esa pedagogik faoliyatda mustaqil va kreativ tarzda foydalanish ko'nikmasi shakllanadi.

Ushbu bosqich kasbiy nutq faoliyatini rivojlanishida boshlang'ich va asosiy rolni o'ynaydi. Unda talabalar o'z kelajak kasbiy faoliyatlarida xorijiy til nutqining ahamiyatini anglab yetadilar. Bu bosqichning asosiy maqsadi talabaning kasbiy nutqga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish, ichki motivatsiyasini oshirish va mavzuga qiziqishini uyg'otishdir.

Bu bosqichda quyidagi faoliyatlar amalga oshiriladi:

kasbiy nutqning vazifalari va real hayotdagি qo'llanish holatlarini tahlil qilish, savol-javoblar, guruhiy muhokamalar orqali talabaning faol fikr yuritishiga sharoit yaratish, video darslar, kasbiy muloqot namunalarini ko'rish va tahlil qilish, kasbiy maqsadga yo'naltirilgan topshiriqlar orqali til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish.

Interaktiv metodlar (muammoli ta'lim, rolli o'yinlar, mini-debatlar) orqali talabada mustaqil fikrlash, samarali muloqot qilish, savol berish va fikr bildirish kabi boshlang'ich kompetensiyalar shakllanadi.

O'zlashtirish bosqichda talabalar kasbiy nutq birliklari, uslublari va ularni tashkil etuvchi lingvistik vositalar bilan tanishtiriladi. Ularning leksik, grammatik, uslubiy bilimlari kengaytiriladi hamda kasbiy muloqot kontekstida ushbu bilimlarni qanday qo'llash bo'yicha nazariy asoslar beriladi.

Asosiy faoliyatlar quyidagilardan iborat:

Kasbiy sohada keng qo'llaniladigan dialog va monolog turlarini o'rganish;

Ma'ruzalar, dars izohlari, metodik tushuntirishlar kabi nutq shakllarini tahlil qilish;

Til birliklарини kasbiy kontekstda qo'llashga doir mashqlar bajarish;

Prezentatsiyalarni tuzish va ularni taqdim etish orqali nutq strukturasini egallah.

Bu bosqichda til va uslub komponentlarining shakllanishi, kasbiy nutqdagi kommunikativ konvensiyalarni o'zlashtirish markaziy o'rinni egallaydi.

Mashq va amaliyot bosqichi. Ushbu bosqichda oldingi bosqichlarda o'zlashtirilgan nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq qilinadi. Talabalar o'z nutqiy bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab, ularni avtomatik tarzda qo'llashga o'rganadilar. Bunda og'zaki va yozma nutqni erkin va mantiqiy ifodalash, real kasbiy vaziyatlarda muloqot olib borish ustida ishlanadi.

Mashg'ulotlarda quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

Kasbiy rolli o'yinlar (o'qituvchi-talaba, o'qituvchi-ota-on, o'qituvchi-rahbar kabi ssenariylar);

Kasbiy uchrashuv, pedagogik maslahat, dars bayoni kabi simulyatsiyalar;

Nutq konstruksiyalarini avtomatik qo'llashga qaratilgan drill-mashqlar;

Kasbiy hujjatlarni (dars rejasi, metodik ko'rsatma) yozish bo'yicha topshiriqlar.

Bu bosqichda talabalar faol muloqot jarayoniga kirishib, real kasbiy

faoliyatga yaqinlashtirilgan sharoitlarda o'z nutqiy faoliyatlarini amalga oshiradilar.

Refleksiya va baholash bosqichi. Mazkur bosqichda talabalar o'z kasbiy nutq faoliyatini tahlil qilish, baholash va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini egallaydi. Refleksiya orqali ular nutqining kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar hamda uni takomillashtirish uchun samaralli yo'nalishlarni belgilab oladi. Mazkur faoliyatni rivojlantirishda didaktik imkoniyatlar, ya'ni ta'lim metodlari, vositalari, texnologiyalari va mashg'ulot turlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar asosidagi suhbatlar, matn asosida munozara, multimedia vositalaridan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Shu bilan birga, interaktiv yondashuvlar, hamkorlikda o'qitish va reflektiv tahlil metodi orqali talabalar o'z nutqiy faoliyatini tanqidiy ko'z bilan baholash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Nutq faoliyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan didaktik imkoniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: kommunikativ topshiriqlar, integratsiyalashgan dars turlari, kontekstual o'yinlar, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan muloqot mashqlari, yozma nutqni tahlil qilish va qayta ishlash mashqlari, hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni (multimedia, interaktiv platformalar, onlayn muloqot muhiti) dars jarayoniga tatbiq qilish.

Ushbu metodik vositalar orqali talaba tilni faqat bilish darajasida emas, balki real nutqiy vaziyatlarda uni faol qo'llay olish malakasiga ega bo'ladi.

Bugungi raqamli ta'lim muhitida o'qituvchi nutq faoliyatini rivojlantirishda ovozli va video materiallar, podkastlar, bloglar, onlayn testlar, og'zaki nutqni rivojlantiruvchi chatbotlar (Duolingo Chatbots), virtual auditoriyalar (Zoom), onlayn interaktiv platformalar (Kahoot, Quizizz) ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz. Maslan, ovozli va video materiallar fonetik ko'nikmalarini, to'g'ri talaffuz va intonatsiyani, podkastlar va bloglar eshitish, tushunish hamda yozma va og'zaki fikrni mantiqiy ifodalashni, Duolingo Chatbots kabi botlar muloqot ko'nikmalarini mashq qilish, nutq tezligi va aniqligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi taksonomik yondashuv va nutqni mantiqiy rivojlantirish asosida bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini takomillashtirishdan iboratdir. Shu asosida bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqishga muvoffaq bo'ldik.


Dissertatsiyada taklif etilgan kasbiy nutq kompetensiyasini rivojlantirish modeli bir nechta blok va komponentlarga asoslanadi.

Maqsadli komponent ta'lim maqsadlari mazmunidan kelib chiqqan holda shakllanib, tizimning asosiy yo'nalishini belgilaydi. Ushbu blokda kasbiy nutq faoliyati mazmuni, nutq darajalarini retseptiv, reproduktiv, produktiv va interaktiv va informativ va ekspressiv turlari bilan uyg'unlashtirish asosida amaliy faoliytda mustaqil qo'llash, taksonomik yondashuv asosida Bo'lajak

xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish, vazifa esa shu maqsadga xizmat qiluvchi metodikani takomillashtirish jarayonlarini tashkil qilishdir.

Tashkiliy-jarayon komponenti quyidagi asosiy yo'nalishni qamrab oladi: yondashuvlar, tamoyillar, shakl, matodlar, vositalar, ta'lim texnologiyalari. Modelda quyidagi yondashuvlar tanlab olingan bo'lib, ular o'qituvchining nutqiy tayyorgarligini kompleks tarzda ta'minlashga qaratilgan: kommunikativ, kognitiv, interagativ, diskursiv, diskursiv, aksilogik. Tamoyillar esa mazmun va faoliyat birligi, tizimlilik va ketma-ketlik, shaxsga yo'naltirilganlik, bilimlilik, konstrukuvlik, refleksivlikni o'z ichiga oladi.

Natijaviy komponenti o'quv jarayonining samaradorligini baholash mezonlari va darajalari ko'rsatilgan. Baholash mezonlari orasida erkinlik, aniqlik, moslik, muhim ahamiyatga ega. Baholash darajalari esa yuqori, o'rta, past darajalarga ajratilgan. Yakuniy natijada taksonomik yondashuv asosida bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish ko'zda tutilgan.



4-rasm. Bo'lajak xorijiy til o 'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish modeli.

Dissertatsiyaning “Bo’lajak xorijiy til o’qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish metodikasi” deb nomlangan uchinchi bobida Bo’lajak xorijiy til o’qituvchisining kasbiy nutq faoliyatining mantiqiy rivojlantirish texnologiyalari, metodikasi, mezon va ko’rsatkichlari tahlil etilgan.

Texnologiya o’qituvchi va talabalar faoliyatini samarali va obyektiv tashkil etishga qaratilgan ilmiy va amaliy usullar majmuidir. Mantiqiy rivojlantirish texnologiyalari deganda nutqiy jarayonlarda fikr yuritish, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, aniqlik, qat’iylik, izchillik kabi mantiqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi texnik, uslubiy va intellektual faoliyat vositalari tushuniladi. Bunda asosiy e’tibor nutqni mazmuniy va strukturaviy jihatdan mantiqiy tashkil etishga qaratiladi. Bo’lajak xorijiy til o’qituvchisining kasbiy nutqini mantiqiy jihatdan rivojlantirish uchun quyidagi texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Biz nazarda tutgan texnologiyalar nutqiy mantiqni shakllantirishga qaratilgan texnologik tizimlar, usullarning muvofiqlashgan majmui hisoblanadi. Tadqiqotda nutqni mazmunan va strukturaviy jihatdan mantiqiy tashkil etishga yo’naltirilgan quyidagi texnologiyalar va vositalar o’rganildi va amaliy qo’llanildi: Toulmin argumenti<sup>22</sup>, Sokratik savol-javob, case study, Digital Portfolio, ELSA speak ilovasi, ThingLink, FluentU, Oculus VR texnologiyalari. Ushbu texnologiyalar nutqning izchilligi, dalilliligi, aniqligi va samaradorligini ta’minlashga yordam berishi aniqlangan.

Toulmin Argument texnologiyasi – har bir bildirilgan fikrni dalil bilan mustahkamlash, dalillarni ierarxik tartibda keltirish, statistik, faktik, nazariy asoslarni taqdim etish texnologiyasidir. Bu texnologiya orqali o’qituvchining nutqi ilmiylik va asoslanganlik jihatidan kuchayadi. Ushbu texnologiya orqali talabalar fikrni faktlar, statistik ma’lumotlar, ilmiy manbalar orqali asoslashni o’rganadilar. Toulmin Model of Argument asosida har bir fikr “Claim” (da’vo), “Grounds” (asos), “Warrant” (asosni bog’lovchi qoida), va “Backing” (qo’shimcha asos) tarkibiy qismlarida quriladi. Masalan: “Xorijiy til o’qituvchisi muloqotda madaniy kompetensiyaga ega bo’lishi kerak (Claim-davo), chunki bu til o’rganish samaradorligini oshiradi (Grounds-asos)...”.

Socratic Questioning texnologiyasi – mantiqiy tartibda tuzilgan savollar orqali fikrni rivojlantirish, asoslash, xulosa chiqarishga yo’naltirish texnologiyasidir. Bu texnologiya mantiqiy tafakkur asosida kasbiy nutqni shakllantirishda samarali hisoblanadi. Bu texnologiyada Savol-Javob modeli asosida fikr yuritish o’rgatiladi. Bunga ko’ra savollar ketma-ketlik bilan mantiqiy fikrlashni chuqurlashtiradi. Masalan: “Nega bu fikrni ilgari surdingiz?”, “Bu fikr qaysi asosga tayanadi?”, “Qanday dalillar mavjud?”, “Shu asosda qanday xulosa chiqadi?” kabi savollar orqali fikrlar chuqurlashtiriladi.

“Case study” texnologiyasi (amaliy holatlarni tahlil qilish) talabalarning

<sup>22</sup> Toulmin S. *The Uses of Argument*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1958. – 247 p.

kasbiy muammolarni anglash, tahlil qilish va hal etish bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu texnologiyada talabalarga real yoki simulyatsiyalangan vaziyatlar taqdim etiladi va ular guruh bo'lib ularni tahlil qiladilar, echimlar ishlab chiqadilar. Kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda Case Study orqali talabalar babs yuritish, fikr bildirish, dalillash, muhokama qilish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Masalan, talabalarga o'qituvchi va talaba o'rtasidagi baholash natijasi yuzasidan yuzaga kelgan muammoli vaziyati taqdim etilib, ular mazkur holatda o'z fikrlarini asoslash, dalillar keltirish va muammoni muhokama qilish orqali yechim ishlab chiqadi

Digital Portfolio (raqamli portfel) texnologiyasi – bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishi, bilim, ko'nikma va yutuqlarini tizimli ravishda to'plash, tahlil qilish, tanqidiy baholash va namoyish etishga qaratilgan texnologiya hisoblanadi. Ushbu texnologiya og'zaki va yozma nutqni mantiqiy rivojlantirish jarayonini izchil ravishda aks ettirib, uning rivojlanish dinamikasini kuzatishi va mustahkamlashda muhim hisoblanadi. Digital Portfolioga taqdimotlar, loyihalar, maqolalar, audio va video materiallar, o'z-o'zini baholash kabi materiallar kiritiladi. Bu texnologiya yordamida bo'lajak bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining nutqiy faoliyatini rejalashtirish, dalillar bilan asoslash, vizual va mantiqiy jihatdan boyitish, shuningdek o'z faoliyati ustidan tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiriladi. Digital Portfolio texnologiyasining asosiy afzalligi shundaki, u talabaning kasbiy nutq rivojlanishini dinamik, izchil va obyektiv tarzda kuzatish imkonini beradi. Talaba portfeli orqali nutqiy faoliyatidagi mantiqiy izchillik, dalillash darajasi, fikrni tuzish va ifodalashdagi o'zgarishlarni tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash mumkin. Mazkur texnologiyani maxsus veb-sayt yaratish orqali ham, shuningdek, soddaroq va keng ommalashgan platformalar, xususan Google Classroom yordamida ham samarali amalga oshirish mumkin.

Bu borada ELSA (English Language Speech Assistant) Speak ilovasi ham bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda samarali raqamli vosita hisoblanadi. Ushbu ilova kasbiy nutqning asosiy tarkibiy qismlari talaffuz va artikulyatsiya, intonatsiyasi va nutq ravonligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

ELSA Speakning talaffuzni baholash funksiyasi bo'lajak o'qituvchilarning fonetik jihatdan to'g'ri nutq ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. AI algoritmlari orqali talaffuzdagi xatolar aniqlanib, ularni tuzatish bo'yicha aniq ko'rsatmalar taqdim etiladi. Shuningdek, ilovaning intonatsiya va nutq ritmini tahlil qilish imkoniyati o'qituvchi nutqining ifodaviy va kommunikativ samaradorligini oshiradi. Dialog va monolog mashqlari orqali nutqning izchilligi va mantiqiyligi mustahkamlanib, fikrni aniq va tizimli ifodalash ko'nikmalari rivojlanadi.

ThingLink platformasi ham bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda kontekstual, multimodal va ssenariy asosidagi

interaktiv ta’lim muhiti yaratish imkonini beruvchi samarali raqamli texnologiya hisoblanadi. ThingLink yordamida real kasbiy vaziyatlar (dars tushuntirish, savol-javob, muhokama, baholash, yo’l-yo’riq berish) vizual sahnalar asosida yaratiladi. Har bir obyektga joylashtirilgan teglar orqali nutq namunasi, terminlar va audio materiallar taqdim etiladi. Natijadda kasbiy nutq faoliyati maqsadli rivojlantiriladi.

FluentU autentik video materiallarga (ma’ruzalar, intervyular, hujjatli lavhalar, taqdimotlar) asoslangan raqamli platforma bo’lib, u kasbiy nutq faoliyatini idrok, tahlil, amaliy qo’llash bosqichlari orqali rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu platforma yordamida kasbiy nutq faoliyati autentik video materiallar asosida kasbiy leksika va nutq qoliplarini kontekstda o’zlashtirish, fonetik va prosodik ko’nikmalarni rivojlantirish hamda nutqni reproduktiv darajadan produktiv darajaga olib chiqish orqali samarali rivojlantiriladi. Masalan videolardagi tabiiy nutq tezligi, urg’u va intonatsiya tinglab-takrorlash mashqlari orqali mustahkamlanadi. Natija, kasbiy nutq ravon, tushunarli va tabiiy tarzda rivojlantiriladi.

Oculus VR -virtual reallik muhitida til o’rganish imkonini beadigan platvorma bo’lib u asosidagi immersiv ta’lim texnologiyalari esa kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda to’liq immersiya va tajriba asosidagi o’rganishni ta’minlaydi. Virtual reallik muhitida talabalar real kasbiy vaziyatlarga maksimal darajada yaqin sharoitda nutqiy faoliyatni amalga oshiradilar. Auditoriya oldida chiqish, dars tushuntirish, savollarga javob berish va bahs-munozarada ishtirok etish kabi ssenariylar talabalarning pragmatik, diskursiv va psixologik tayyorgarligini kuchaytiradi. VR muhitidagi nutqiy faoliyat tabiiy tezlik, real fon shovqinlari va emotsiyonal holatlar bilan uyg’unlashganligi sababli, kasbiy nutqning ravonligi, ishonchliligi va kommunikativ samaradorligi oshishiga olib keladi.

Ular orqali talabalar o’zaro fikr almashadilar, hamkorlikda faoliyat olib boradilar, o’z bilim va ko’nikmalarini baham ko’radilar. Shu tarzda kasbiy nutq faoliyati nafaqat individual, balki ijtimoiy-kasbiy muloqot doirasida ham rivojlanadi.

Uchinchi bobda, shuningdek, kasbiy nutq kompetensiyasini baholash mezon va ko’rsatkichlari ishlab chiqilgan. Bo’lajak xorijiy til o’qituvchising kasbiy nutq faoliyatini samarali shakllantirish va baholashda aniq mezon va ko’rsatkichlarning mavjudligi muhim hisoblanadi. Ushbu mezonlar o’qituvchining kasbiy nutq faoliyatini va bu faoliyatga tayyorlik darajasini va uni amaliyotda qo’llash ko’nikmalarini belgilashga xizmat qiladi.

Bo’lajak xorijiy til o’qituvchilarining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda kognitiv-mustaqlil, konstruktiv-aniqlilik va aksiologik-refleksiv komponentlar kasbiy nutq faoliyatining tarkibiy qismlari sifatida tanlab olindi va ularning xar biriga mos ravishda mezonlar ishlab chiqildi:

fluency (erkinlik) mezoni og’zaki nutqning uzlucksizligi, pauzalar miqdori va muloqotdagi tabiiylik darajasini ifodalaydi;

accuracy (aniqlik) mezoni esa grammatik, fonetik va leksik jihatdan to'g'riligini baholaydi;

relevance (mazmuniy moslik) mezoni talaba nutqining pedagogik kontekstga, muloqot maqsadiga va auditoriya ehtiyojlariga mos kelishini belgilaydi.

Shuningdek, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish indikatorlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu indikatorlar o'qituvchining nutqiy faolligini bosqichli asosda o'lchash imkonini beradi. Masalan, boshlang'ich bosqichda "oddiy savollarga javob bera oladi" indikatori belgilansa, keyingi bosqichlarda "o'z nuqta nazarini bildiradi", "fikrni dalillar bilan asoslaydi", "muloqotni boshqaradi", "ziddiyatli vaziyatlarda til strategiyasini qo'llaydi", "fikrni aniq va mantiqiy ifodalaydi" kabi indikatorlar qo'llaniladi

Kasbiy nutq faoliyatini metodik jihatdan rivojlantirish jarayonida texnologik bosqichlarning ketma-ketligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu bosqichlar ishlab chiqilgan model asosida quyidagicha amalga oshiriladi: birinchi bosqich – diagnostik-tahliliy bosqich, bunda talabaning dastlabki lingvistik, nutqiy va kommunikativ tayyorgarlik darajasi aniqlanadi, bu bosqichda diagnostik testlar, suhbatlar, nutqiy namunalarni yozma va og'zaki shaklda tahlil qilish orqali kasbiy nutqqa oid mavjud bilim va ko'nikmalar baholanadi, bunda o'qituvchining lingvistik ehtiyojlari aniqlanadi va ularga mos metodik materiallar tanlanadi.

Ikkinci bosqich – tayyorlovchi-lingvistik bosqich, bu bosqichda kasbiy kontekstda eng ko'p uchraydigan til birliklari, ya'ni kasbiy terminlar, nutq birikmalar, dars jarayonidagi standart frazalar, baholash ifodalari va so'zlashuv janrlarining tuzilishi o'rgatiladi, bunda fonetik to'g'rilik, intonatsion moslik, grammatik moslashuv va funksional uslubiy normalar asosida mashqlar tuziladi, ushbu bosqichda o'rgatilayotgan til materiali kontekstual mashqlar orqali mustahkamlanadi.

Uchinchi bosqich – interfaol-amaliy bosqich, bu yerda talabalar kasbiy faoliyatga oid turli nutqiy vaziyatlarda o'z fikrlarini mustaqil bayon qilish, pedagogik muloqotda ishtirok etish, dars modellashtirish, babs va munozaralarda qatnashish orqali o'z nutqiy faoliyatini amaliyotda rivojlantiradi, ayniqsa, bu bosqichda Communicative Language Teaching, Task-Based Language Teaching, va Content and Language Integrated Learning metodlari asosida real hayotiy va kasbiy muhitga yaqin sharoitlar yaratilib, talabalar faol nutqiy harakatga jalb etiladi

To'rtinchi bosqich – refleksiv-analitik bosqich, bu bosqichda talaba o'zining nutqiy faoliyatini baholaydi, o'z xatolarini tahlil qiladi, erishilgan natijalarni ko'rib chiqadi, bu jarayonda videoanaliz, baholovchi jurnallar, shaxsiy refleksiya kundaliklari, savol-javoblar va muhokama mashg'ulotlari qo'llaniladi, ayniqsa, "men qanday gapirdim?", "mening nutqim yetarlimi?", "tinglovchilar meni tushundimi?" kabi savollarga javob izlash orqali nutqiy

refleksiya shakllanadi, bu bosqich metodikaning shaxsiy rivojlanishga xizmat qiluvchi va ongli yondashuvga asoslangan eng muhim elementi hisoblanadi. Metodikaning asosiy samaradorlik vositalaridan yana biri bu kasbiy nutq faoliyatiga oid topshiriqlarning integratsiyasi bo'lib, bu topshiriqlar amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi, muloqotni real kontekstda tashkil etishi, talabani fikr yuritishga va o'z nuqtai nazarini asoslab berishini ta'minlaydi. Metodikada matnlar bilan ishslash ham kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda muhimligi ta'kidlangan. Matn asosida so'z boyligini oshirish, grammatik strukturalarni o'rganish, frazeologik birikmalarni kontekstda ishlatish va stilistik moslashuvlarni anglash imkoniyati yaratiladi. Masalan, darsga oid metodik ko'rsatmalar, dars ishlanmalari, fanlararo integratsiya asosidagi dars matnlari, baholash mezonlarini tushuntiruvchi hujjatlar, talabalar bilan olib boriladigan suhbat namunalari, muammoli vaziyatlarga oid maqolalar va ilmiy-metodik materiallar asosida turli darajadagi topshiriqlarni ishlab chiqish mumkin. Matn asosida fikr bayon qilish, dars stsenariysi yozish, matn asosida og'zaki baho berish, muallif fikriga munosabat bildirish, matn mazmuniga asoslangan muhokama yuritish, nutqiy rejani tuzish, alternativ xulosalar chiqarish kabi faoliyatlar orqali bo'lajak o'qituvchi nafaqat kasbiy leksika va strukturalarni o'zlashtiradi, balki o'z shaxsiy nutqiy pozitsiyasini, ifoda uslubini va kasbiy til madaniyatini shakllantiradi.

Dissertatsiyaning **"Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalari"** deb nomlangan to'rtinchi bobida bo'lajak, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari, bosqichlari tajriba-sinov ishi natijalarining sifat va miqdor ko'rsatkichi tahlili keltirilgan, unda bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutq kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ilgari surilgan metodik model va texnologiyalarning amaliy asoslanganligi, ularning samaradorligini empirik tekshirish jarayonlari ilmiy asosda bayon qilingan.

Ilmiy tadqiqotimizda ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlarni amaliyotga joriy qilish maqsadida, bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodikaning amaliy samaradorligini aniqlash uchun pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba sinov ishlarining asosiy maqsadi ishlab chiqilgan metodikaning o'quv jarayonida qay darajada samarali ekanligini sinovdan o'tkazish, hamda uning didaktik imkoniyatlari va amaliy natijalarini obyektiv ko'rsatkichlar asosida baholashdan iboratdir.

Tajriba-sinovning vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

- tadqiqot davomida ishlab chiqilgan "Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishning modeli va uning asosida yaratilgan metodikanning nazariy asoslanganligini amaliyotda tekshirish;

- tajriba ishtirokchilari – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy nutq faoliyatining dastlabki va yakuniy holatini aniqlash uchun diagnostik vositalar tizimini ishlab chiqish va qo'llash;

- nazorat va tajriba guruhlarida o'quv jarayonini tashkil etish, tajriba guruhida taklif etilayotgan metodikadan foydalanish, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar asosida sinab ko'rish;
- olingen natijalarni miqdoriy va sifat jihatdan qiyosiy tahlil qilish, statistik ishonchlik metodlari yordamida metodikaning samaradorligini aniqlash;
- tajriba natijalariga asoslanib, taklif etilgan metodikaga o'zgartirish kiritish va takomillashtirish.


## 2-jadval

### Dastlabki so'rovnama jarayonida OTMlarning eksperimental tanlanma miqdori

Bosqichlar	O'zMPU		BuxDPI		QDU		JAMI	
Guruhi	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
JAMI	54	52	51	51	51	51	156	154

Tajriba-sinov ishlari O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti va Qo'qon davlat universiteti xorijit til va adabiyot yo'nalishi talabalari jami 310 nafar respondent ishtirokida olib borildi. Tadqiqot 2022-2024 yillarda uch bosqichda: diagnostik, shaklantiruvchi va nazorat bosqichlarida amalga oshirildi.

Bobning so'nggi qismida tajriba-sinov ishining natijalari chuqur miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida tahlil etilgan. Tahlil natijalari quyidagicha ilmiy asoslab berildi:




**5-rasm.Tajriba oxiridagi Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutqning aksiologik-refleksiv faoliyatini rivojlantirish komponentining mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari.**

Xisob kitob ishlari ko'ra tajriba sinov ishlari tanlab olingen guruxlarning Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutqning kognitiv-

mustaqil faoliyatini rivojlantirish komponentining mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari tajriba guruhlarida yuqori degan xulosaga kelish mumkin. Bunda samaradorlik Fluency (erkinlik) mezoni bo'yicha 1,17 barobarga, Accuracy (aniqlik) mezoni bo'yicha 1,16 barobarga va Relevance (moslik) mezoni bo'yicha 1,17 barobarga yuqori ekanligi aniqlanib Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutqning kognitiv-mustaqlil faoliyatini rivojlantirish mezonlar bo'yicha rivojlanish darajasini 1,17(17%)barobarga yuqori ekanligi aniqlandi.

Barcha komponentlar bo'yicha umumlashgan samaradorlik ko'rsatkichi quyidagi diagrammada aks ettirildi.



#### 6-rasm. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutqning barcha komponentlar bo'yicha umumlashgan samaradorlik ko'rsatkichi.

Demak olingan natijalarga ko'ra bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy nutqning rivojlantirish samaradorligi 1,165 barobarga, ya'ni 16,5%ga yuqori ekanligi tasdiqlandi.

### XULOSA

1. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi. Bunda bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutqiy faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari nutq uzviyiliginini ta'minlash va semantik kodlash jarayonining faollashuviga ko'ra "kognitiv-semantik moslashuv" tadqiqot birligi orqali autentik nutqiy materiallarni real muloqot vaziyatlarida tahlil qilish hamda kasbiy diskursning intonatsion-xissiy o'zgaruvchanligi orqali muloqotni optimallashtirish asosida aniqlashtirilgan.

2. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda immitatsion mashq orqali mustahkamlash va alternativ ifodalash kabi

ustuvor nutqiy strategiyalardan foydalanildi. Natijada talabalarning til birliklarini tez va to'g'ri qo'llash orqali nutqiy bo'shliqlarni to'ldirish hamda alternativ ekspressiv vositalar bilan mazmunni etkazish imkoniyatlariga ta'siri natijasida kollaborativ nutq faollashuvi ilmiy asoslangan.

3. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining nutqiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi. Bunda Socratic Questioning texnologiyasi, Toulmin Argument modeli, Case Study, gipotetik muammolar, fikr so'rovi, PRES formulasini joriy etish kognitiv-kommunikativ, lingvistik va pragmatik mashqlar tizimini ishlab chiqish hamda rolli o'yinlar, kasbiy faoliyatni simulyatsiya qilish tamoyili asosida takomillashtirilgan.

